



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA FAN TO'GARAKLARINING O'RNI

*Razoqova Xurshidaxon Turdaliyevna*

*Farg'onan viloyati Furqat tumani 3-umumiy o'rta ta'lif makkabining*

*Boshlang'ich ta'lif fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maktabda faoliyat olib borayotgan to'garak mashg'ulotlari shaxsning barkamol kamol topishga, o'sib kelayotgan avlodning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga, o'quvchilarga mehnatsevarlikni singdirishga, shuningdek, ularning bo'sh vaqtidan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan, uning asosiy vazifasi o'quvchi yoshlarga qo'shimcha ta'lif va tarbiya berish bilan birga ularning bo'sh vaqtini sermazmun o'tkazish, yoshlarning ongiga milliy g'oya va vatanparvarlik tuyg'ularini singdirishdan iboratdir.

**Kalit so'zlar.** to'garak, ijodkorlik, interfaol usul, pedagogik lug'at.

To'garak mashg'ulotlarini interfaol usullardan foydalanib olib borish ta'lif sifatini yanada oshiradi. Bola mashg'ulotda erkin fikrlay olishi, ijodkorlik mahoratini oshkora namoyish eta olishi lozim. To'garakda bola maktab darslaridan keyingi bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun sharoit yaratilishi zarur. To'garak mashg'ulotlari bola o'z ustida ishlashi, o'zi qiziqqan yo'nalishi bo'yicha shug'ullana olishi, qo'shimcha bilimga ega bo'lishi uchun imkon beradi. Mashg'ulot davomida dars o'qtish bilan birga bolalarda o'zaro ijodiy tajriba almashishadi. Bir yo'nalishda izlanayotgan, bo'lajak yosh mutaxassislar shakllanadi. To'garak bolalarning to'garaklarni o'zlari erkin tanlashi, bir vaqtning o'zida bir necha to'garakka qatnashi va qiziqishiga ko'ra to'garakni almashtirishi mumkin. To'garak darsning turli bosqichlarida puxta o'ylash samarali usullar hamda metodlarni tanlash juda muhimdir. O'qitish metodlarining juda ko'p turlari mavjud va ularning sonini aniqlab belgilab bo'lmaydi. Metodlar o'qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga asoslanib tasniflanadi. Maktabdagagi o'qitish metodlarining yagona tasnifi yo'q. Tasnif tartib va tizimni vujudga keltiradi. Umumiy va muayyan, nazariy va amaliy, muhim va tasodifiy o'qitish metodlarini aniqlashga yordam beradi, shu orqali ulardan amaliyotda samaraliroq foydalanishga xizmat qiladi. O'qitish metodlarini bilish manbalari bo'yicha tasniflash ancha oddiy bo'lib, ular maktab amaliyotida keng tarqalgan. Bu belgi bo'yicha metodlar quyidagi 3 guruhga bo'linadi:

Og'zaki metodlar (bilimlarni so'z bilan bayon qilish, suhbat, darslik, ma'lumotnomasi va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash)

Ko'rsatmali metodlar (rasmlar, namoyishlar, kuzatishlar)

Amaliy metodlar (mashqlar, laboratoriyyadagi amaliy ishlar)



Bular ma'lum darajada shartlidir, chunki mazkur metodlarning hammasi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularni doim ham aniq chegaralab bo'lmaydi. Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyotining rivojlanishi o'qituvchidan ijodkor bo'lisni fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishni, yangi pedagogik texnologiyalar asosida mashg'ulotlar olib borishni talab qiladi. Shuning uchun ham o'qituvchining ushbu sohadagi malakalari o'quvchi shaxsini shakillantrishning negizini tashkil etadi. Demak, o'qituvchi ilg'or tajribalarni to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. O'z mutaxassisligi bo'yicha bilimlarni egallaydi. O'qituvchida pedagogik tajribalar yuqori bo'lish, pedagogik tehnologiya, o'qitish metodlari, pedagogik texnika, o'z-o'zini boshqarish, muloqot madaniyati, nutq madaniyati orqali o'quvchiga tasir qila olishi, pedagogik axloq, o'zaro munosabat, ijobiy natijalarga erishishi kabi bilim, ko'nikma va malakalarning namoyon bo'lishi uning ko'p qirrali pedagogik mahoratga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu degani – dars jarayoni samarali bo'lishi, uning pedagogik mahoratiga, kasbiy qobiliyatiga bog'li Bu keljakda bolalarning biror-bir kasbni tanlashida boshlang'ich pog'ona vazifasini o'taydi. To'garak rahbari to'garak mashg'ulotida samaradorlikka erishish uchun to'garak mashg'uloti ishlanmasiga alohida e'tibor qaratishi, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tuzishi lozim. Bunda to'garak rahbari oldiga qo'ygan har bir maqsadga xolisona, bolalar tushinishi uchun uning soddaligiga alohida e'tibor berishi kerak. To'garak rahbarlari to'garak mashg'ulotlari ishlanmasini quyidagi tartibda tuzishlari mumkin. To'garak bu- ma'lum bir bilim sohasiga qiziqishni kuchaytiradigan va amaliy faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan talabalarning ixtiyoriy birlashmasi. Doiralardagi mashg'ulotlar dasturning mavjudligi, muntazamligi, vaqt davomiyligi va ishning o'ziga xos profili bilan tavsiflanadi. To'garaklar matabda to'garak ishlari tizimining bir qismidir. Pedagogik lug'atga ko'ra, to'garak ishlari bolalar uchun qo'shimcha ta'lim shakllaridan biri bo'lib, u turli xil to'garaklar, sektsiyalar va to'garaklarni tashkil etishdan iborat. To'garak ishi talabalar uchun qiziqishlariga asoslanib ixtiyoriy ravishda tanlangan faoliyatning shaxsiyat uchun muhim, qadriyatlarga asoslangan, individual tajribasini o'zlashtirish sohasiga aylandi. Bu talabalarga kasbiy o'zini o'zi belgilashda yordam beradi, asosiy tarkibiy qismda olingan bilimlarini, kuchli tomonlarini amalga oshirishga yordam beradi. Ongli ravishda to'garak ishlari orqali kasb tanlash uchun o'quvchilarning bir qator kasblarni yetarlicha bilishi, bilganda ham ularning o'ziga jalb qiladigan tomonlarini emas, balki qiyinchiliklarini ham yaxshi bilishi, o'zining shaxsiy sifatlariga ko'ra tanlangan kasbini muvaffaqiyatli egallay olishi va keyingi ish jarayonida o'z malakasini takomillashtirish talab qilinadi. Bunday ko'nikmalarni bevosita to'garak ishlari orqali shakllantirish, o'quvchilarning biror bir hinarni egallahlarida ko'rsatmalar berish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi vaqtga qadar to'garak ishlari orqali kasbga yo'naltirish ishlari yetarlicha saviyada olib borilmasligi, ularni kasb-hunar turlari bo'yicha aniq



ma'lumotga ega emasligiga olib keladi. Maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan savol-javob qilinganda shu narsa aniqlandiki, ularning faqat 65% ommaviy kasblarni bilishi to'g'risida ta'kidlagan. O'quvchilarning faqat 25%ni to'garaklarga jalb qilingan.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchi shaxsini shakillantrishda o'qituvchining ahamiyati va ta'siri beqiyos. Chunki, o'qituvchi o'quvchi bilimlarini, tafakkurini o'stiradi. Shu sababli o'quvchilar shaxsini shakillantrishda o'qituvchi har qanday masalalarga to'g'ri yondashishi uning tabiatni, tuzilishi, xulq-atvorini va unga sabab vositalarini inobatga olishi zarur. Boshlang'ich ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga, samaradorlik esa o'z navbatida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va faollashtirishga bog'liq bo'ladi. Har bir darsda o'rganiladigan mavzuning mazmunini e'tiborga olgan holda kichik guruhlarda ishlash, didaktik o'yinlar, "Aqliy hujum", o'z-o'zini baholash kabilidan foydalaniladi. Bunday usullarda ilg'or pedagogik texnologiyaning didaktik o'yinli texnologiyalari didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Bunda bilim olish o'yin bilan uyg'unlashtiriladi.

### Foydalanilgan abdiyotlar:

1. Abu Rayxon Beruniy. Ruhiyat va ta'lim – tarbiya haqida., Tosh., 1992 y.
2. Studentlarga o'quvchilarga kasb tanlashga yo'llash ishlarini o'rgatish.
3. N.Shodiyev Toshkent «O'qituvchi» 1987 yil.

